

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI GULLARGA OID SO‘ZLARNING LEKSIKOGRAFIK TASVIRI

Xoldorova Yorqinoy Shavkat qizi

O‘zMU, Xorijiy filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Yusupova Tuymajon**

O‘zMU nemis Filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillari leksikografiyasida fitonimlarning berilish tamoyillari va ularning lug‘at maqolalarida aks etish xususiyatlari qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot davomida nemis lug‘atchiligiga xos ilmiy-taksonomik aniqlik va o‘zbek lug‘atchiligidagi tasviriy-lingvokulturologik yondashuvlar o‘zaro tahlil qilingan. Natijada fitonimlarning lug‘atdagi tavsifi nafaqat biologik ma’lumotni, balki xalqning estetik dunyoqarashini ham qamrab olishi lozimligi isbotlangan.

Abstract: This article presents a comparative study of the principles of representing phytonyms (flower names) in German and Uzbek lexicography. The research analyzes the scientific-taxonomic precision characteristic of German lexicography alongside the descriptive-linguoculturological approaches found in Uzbek lexicography. The findings demonstrate that the lexicographic description of phytonyms should encompass not only biological information but also the aesthetic worldview of a nation.

Kalit so‘zlar: fitonimika, leksikografiya, qiyosiy tilshunoslik, nemis tili, o‘zbek tili, lug‘at maqolasi, botanika leksikasi, lisoniy manzara.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, ona tili millatning o‘zligini anglatuvchi eng oliy qadriyat bo‘lib, uni zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida rivojlantirish va xalqaro nufuzini oshirish bugungi kunning strategik vazifasidir¹. Shu nuqtai nazardan, gullarga oid leksikaning (fitonimlarning) nemis va o‘zbek tillari misolida leksikografik tahlil qilinishi, tilimizning terminologik qatlamini tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Leksikografiya fani esa bu jarayonda tildagi o‘zgarishlarni va

xalqning lisoniy dunyoqarashini lugʻat sahifalariga muhrlovchi asosiy vosita sanaladi. Leksikografiya tilshunoslikning amaliy va nazariy boʻlimi sifatida lugʻatlar tuzish hamda ularni ilmiy tahlil qilish bilan shugʻullanadi. Zamonaviy tilshunoslikda leksikografiya shunchaki soʻzlar jamlanmasi emas, balki jamiyatning intellektual va madaniy salohiyatini aks ettiruvchi koʻzgudir. Lugʻat maqolasi orqali soʻzning semantik strukturasi, uning qoʻllanish doirasi va etimologik ildizlari ochib beriladi³. Leksikografiya tilning lugʻat boyligini maʼlum bir tartibga solish orqali fanning boshqa sohalari rivojiga ham turtki beradi. Fitonimlar qatlamini oʻrganish orqali biz ikki xalqning tabiatni idrok etish usullari oʻrtasidagi farqlarni yaqqol koʻrishimiz mumkin.

Nemis leksikografiyasi jahon lugʻatchiligida oʻzining qatʼiy prinsiplari va uzoq tarixi bilan ajralib turadi. Nemis tilshunosligida lugʻat tuzish anʼanasi chuqur ildizlarga ega boʻlib, bugungi kunda Duden va Wahrig nashrlari bu sohaning choʻqqisi hisoblanadi. Nemis lugʻatchiligida har bir soʻzning, ayniqsa fitonimlarning tavsifida ilmiylik va taksonomik aniqlik birinchi oʻrinda turadi⁴. Oʻzbek leksikografiyasi ham oʻzining boy tarixiy anʼanalariga ega boʻlib, Mahmud Koshgʻariy davridan boshlab shakllangan milliy lugʻatchiligimiz bugungi kunda yangi bosqichga koʻtarildi. Ushbu lugʻatlarda oʻzbek tili leksikasining, jumladan, gullar nomlarining oʻziga xos lisoniy xususiyatlari batafsil aks etgan.

FITONIMLARNING LUGʻATLARDA BERILISH XUSUSIYATLARI

Fitonimlar, yaʼni oʻsimlik va gullarga oid nomlar tilning leksik tizimida alohida mavqega ega. Ular nafaqat botanika sohasiga oid tushunchalarni ifodalaydi, balki milliy madaniyatning, xalq urf-odatlarini va estetik qarashlarining tashuvchisi hisoblanadi. Oʻzbek tilida gullar nomlari koʻpincha ramziylikka va badiiy obrazlilikka asoslangan boʻlsa, nemis tilida ular koʻproq obyektiv biologik belgilarga tayanadi. Masalan, nemis lugʻatlarida gullar nomini tavsiflashda lotincha botanik nomi va ilmiy taksonomiyasi albatta koʻrsatiladi. Bu holat nemis tilining ratsional-tahliliy tafakkur tarzi bilan chambarchas bogʻliqdir⁴.

O‘zbek lug‘atlarida esa fitonimlarni tavsiflash jarayoni ko‘proq deskriptiv (tasviriy) usulda amalga oshiriladi. Lug‘at maqolasida gulning rangi, hidi, poyasi va uning inson hayotidagi amaliy o‘rni keng yoritiladi³. Masalan, "Atirgul" yoki "Rayhon" kabi fitonimlar izohida ularning shifobaxshligi va milliy she‘riyatda qo‘llanishiga alohida urg‘u beriladi. Izohli lug‘atlarda fitonimlarning barcha ma‘no qirralari ochib berilsa, tarjima lug‘atlarida ularning adekvat muqobilini topish asosiy muammoga aylanadi. Nemis-o‘zbek tarjima lug‘atlarida ekvivalentlik masalaasi ko‘pincha mahalliy o‘simliklarni o‘girishda qiyinchilik tug‘diradi⁶. Bunday vaziyatlarda leksikografik izoh berish yoki tavsifiy tarjimadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda har ikki tilning leksikografik tamoyillari o‘zaro to‘qnashadi va boiydi. Gullar nomlari lug‘atlarda o‘zining ko‘chma va ramziy ma‘nolari bilan ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida “gul” so‘zi bilan bog‘liq frazeologizmlar va o‘xshatishlar nihoyatda boy bo‘lib, ular xalqning estetik olamini ifodalaydi. Nemis tilida ham fitonimlar asosidagi birikmalar mavjud, biroq ular ko‘proq barqaror terminologik xarakterga egadir⁵.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 8-12.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (1-5 jildlar). – Toshkent: O‘zME, 2012. – B. 432-435.
3. Madvaliyev A. O‘zbek leksikografiyasi darsligi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 120-125.
4. Duden. Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. – Mannheim: Dudenverlag, 2012. – B. 115-120.
5. Wiegand H.E. Lexikographie und Wörterbuchforschung. – Berlin: De Gruyter, 2014. – B. 74-80.
6. Mirxanova G.R. O‘zbek terminologiyasi tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2025. – B. 55-60.